

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil dagi UMO-23 3 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish муддати 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra	Epidemiologiya		
O'quv dastur nomi	Parazitologiya		
O'qish turi	Umumiy malaka oshirish		
O'quv dastur mualliflari	Iskandarova G.T., Raxmanova J.A., Ne'matov A.S., Zoirova N.T.		
Siklning umumiy soati	144 kredit		
Siklda dars beradigan professor-o'qituvchilar			
 t.f.d., professor Iskandarova G.T.	 t.f.d., professor Raxmanova J.A.	 t.f.d., professor Ne'matov A.S.	 katta o'qituvchi Zoirova N.T.
Maqsad		Parazitolog va tibbiy entomologlarning kasbiy bilim darajasi va malakasini oshirish, bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash, professional kompetensiyalarini takomillashtirish, yetuk, barkamol, sog'lom va ilg'or shifokor shaxsini shakllantirish. Aholining ongiga sog'lom hayot turmush tarzi, infeksiya va noinfeksiya kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini o'rgatadigan, ularda yuqumli kasalliklarni aniqlay oladigan, parazitologik tashhis, parazitologik va entomologik nazorat, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, zamonaviy laborator usullari bilan parazitlar kasalliklarni aniqlashni amaliyotga joriy qilish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini	

	mukammallashtirish va yangilashdan iborat.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki boshlang'ich ixtisoslashtirishda mazkur mutaxassislik olganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan vrach-parazitologlar, vrach-entomologlar va vrach-epidemiologlar.
Sikl vazifalari	Parazitologik tashxis, epidemiyaga qarshi yangi usullarni, aholini kasallikka moyilligini, aholiga immunitetni hosil qilishga qaratilgan choralar, epidemiologik, parazitologik, entomologik diagnostika, epidemiologik nazorat, olingan kasallik ma'lumotlar bo'yicha statistik ishlov berish va xisobot rasmiylashtirish, profilaktika va epidemiyaga qarshi zamonaviy chora-tadbirlarni amaliyotga joriy qilish, yuqumli kasalliklar paydo bo'lganda parazitlar kasalliklarning tashuvchilari – hasharotlar ustidan entomologik nazorat va ularning biologiyasi, ekologiyasi va tibbiyotdagi ahamiyati. Jahonda qo'llanilayotgan rejim qoidalarini o'rgatish.
Sikl tarkibi	Modul 1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Konsepsiyasi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, me'yoriy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida me'yoriy xujjatlar Sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasini faoliyati va me'yoriy hujjatlar. Modul 2. Parazitologiya va tibbiy entomologiyaning zamonaviy talqini Modul 3. Umumiy parazitologiya va entomologiyani o'qitishda zamonaviy yondoshuv Modul 4. Xususiy parazitologiya va entomologiyaning dolzarb masalalari Modul 5. Parazitologiya va entomologiyaning dolzarb mavzulari bo'yicha ko'chma mashg'ulotlar
O'qish bazalari	Sanitariya-epidemiologik osoishtalik va jamoat salomatligi ko'mitasi, parazitologiya laboratoriyasi